
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Qonunchilikka ko'ra, 2024 yil 1 iyulgacha issiqxonaga ixtisoslashgan yer maydoni 25 sotixdan ko'p bo'lgan tadbirkorlar tomonidan ishchilarining mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini quyidagi shartlarga bir vaqtning o'zida rioya qilinganda tadbirkorlarga qaytarib berish tartibi joriy etiladi:

har bir 5 sotix yer maydoni uchun oyiga kamida 1 nafar ishchining bandligini ta'minlash;

har bir ishchi uchun oyiga mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadni mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1 baravaridan kam bo'lmagan (1 million 050 ming so'm) miqdorda belgilash;

issiqxonaga ixtisoslashgan tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan issiqxona faoliyati bo'yicha olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etishi.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-02-20 17:19:16